

XALQ TABOBATI SOHASINING RIVOJLANISHI VA UNING ISTIQBOLLARI

Olimjonova Muxlisa 1-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: dotsenti Yuldasheva L.S

Annotasiya

Ushbu ilmiy maqolada xalq tabobati sohasiga hozirgi kunda bo'layotgan talab va ehtiyoj hamda xalq tabobatining ahamiyati uni tibbiyotda tutayotgan o'rni, davlatimiz tomonidan xalq tabobatiga qaratilayotgan e'tibor va imkoniyatlar, hozirda uning rivojlanishi va istiqbollari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Xalq tabobati, akupunktura, mizoj, tabiblar, dori va vaksina, inson salomatligi, tabiat va jamiyat, gigienik tarbiya, ijtimoiy omillar

Key words: folk medicine, acupuncture, client, doctoros, medicine and vaccine, human health, nature and society, hygienic education, social factors

Abstract

In this scientific article, the current need for the field of folk medicine, the importance of folk medicine, the attention and possibilities of folk medicine, the current development and prospects are highlighted.

Kirish:

Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v): "Ilm ikkitadir: tabobat ilmi va din ilmi" - degan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, tabobat ilmi hatto din ilmidan ham oldin tilga olingan. Demak tabobat ilmi rivojlanmasa, boshqa narsalarning rivojlanishi oqsab qoladi. Haqiqatdan ham, badan salomat bo'lmasa kishi boshqa ishlarga qanday qo'l ursin. Axir inson hayoti davomida ko'proq sog'lig'ini o'ylaydi, kasal bo'lgan chog'ida undan qutulishni barcha choralarini qidiradi. Sababi biron a'zosi og'rib turganda unga hayot lazzati va rohati tatimaydi. Hozirgi kunda ekologik vaziyatning yildan-yilga yomonlashib borayotganligi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy muammolar tufayli o'tkir surunkali, onkologik va turli xildagi kasalliklar yuzaga kelmoqda. Ammo bu holatlarga nisbatan, davlatimiz budjeti tomonidan zamonaviy tibbiyotga katta miqdorda mablag' ajratildi. Bundan tashqari kasalliklarga qarshi bo'lgan vaksina va dorilar ishlab chiqarildi. Shu bilan birga zamonaviy tibbiy jihoz va uskunalar bilan ta'minlangan tibbiy markazlar, shifoxonalar, klinikalar tashkil

etildi. Ammo ushbu holatni ko'p jihatdan tibbiyotning barcha mintaqalariga va aholining barcha qatlamlariga to'liq kirib bormaganligi hamda dori vositalarining narxi yuqori darajada ekanligi, shu dori vositalari yuqorida keltirilgan ba'zi kasalliklarni keltirib chiqaryotganligi tufayli kasalliklar to'liq darajada bartaraf etilmayapti. Dori va vaksinalarning sifat darajasi pastligining asosiy sabablaridan biri: zamonaviy tibbiyotda dori vositalari tabiiy bo'lmagan mahsulotlardan kimyoviy usulda sintez qilinadi. Natijada bu dorilar organizm faoliyatini sustlashtiradi yoki tezlashtiradi. Buning oqibatida organizm zo'riqadi va boshqa kasalliklar yuzaga keladi, organizm dorilar keltirayotgan zaraga qarshi kurashish bilan ovora bo'ladi. Bu kabi holatlar aholi o'rtasida xalq tabobatining ommalashishiga va tabiblarga bo'lgan ehtiyojning yuqori bo'lishiga olib kelmoqda.

Metod turlari:

Yevropalik olimlar tomonidan fuqarolarning xalq tabobatiga bo'lgan munosabati o'rganilgan, ya'ni bir nechta so'rov nomalar o'tkazilgan. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, onkologik va ayrim murakkab kasalliklarni davolashda zamonaviy tibbiyotga nisbatan xalq tabobati usuli bilan davolash ancha samarali, qulay va arzonligini ko'rsatdi. Barchamizga ma'lumki Koronavirus pandemiyasi davrida ham, qaysi davlatda xalq tabobati va sog'lom turmush tarzi yuqori bo'lsa, o'sha davlatda keng tarqalmadi va nisbatan tez bartaraf etildi. Shu sababli ham xalq tabobatining kasalliklarni davolash, tashhis qo'yish bo'yicha samarali usullarini zamonaviy tibbiyot bilan bog'lash va bu sohada yetuk mutaxassislar tayyorlash maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2018-yil 12-oktabrda "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3968-sonli qarori qabul qilindi. Bunga muvofiq, 2020-yil 1-maydan davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs maqomiga ega Respublika xalq tabobati ilmiy-amaliy markazi hamda tibbiyot OTMlari va Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat texnikumlarida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan Xalq tabobatini rivojlantirish markazlari tashkil etildi. Mana shu markazlarda esa xalq tabobatining asosiy

yo'nalishlari, hisoblangan, fitoterapiya, ayurveda, akupunktura, gomeopatiya, yoga, moxoterapiya, naturopatiya, osteopatiya, terminal tibbiyot, xiro-amaliyot, sigun kabi yo'nalishlari ochildi va yo'lga qo'yildi. Bu kabi yo'nalishlarning rivojlanishi va amaliyotda tatbiq etilishi maqsadida davlatimiz tomonidan mablag'lar ajratildi

hamda O'zbekiston xalq tabobati assotsiatsiyasi,"Tabobat" akademiyasi tashkilotlari bilan faoliyat olib borilmoqda .Barcha OTM muassasalarida ham bu yo'nalish bo'yicha o'quv-dasturlar tuzildi va talaba yoshlarning amaliy ko'nikmalariga ham qo'ldan kelganicha sharoitlar yaratilmoqda.Shu bilan birgalikda Xitoy,Korea,Hindiston davlatlari bilan hamkorliklar olib borilmoqda.Jannatmakon O'zbekistonimizning shifobaxsh bo'lgan barcha o'simliklaridan oqilona foydalanilgan holda ulardan turli tuman dorilar va damlamalar tayyorlanmoqda.Va mana shu dorilarni bemorlarning mizojiga qarab tavsiya etilmoqda.Shuni ham unutmaslik kerakki insonlarning mizoji bo'lgani kabi,bu dunyoda barcha ne'matlarning, shu jumladan dori-darmonlar ham mizojga ega ekan.Bularni o'z mizojiga ko'ra tavsiya etish ko'pgina kasalliklarni bartaraf etishga yordam bermoqda.Ya'ni mizoj tabobatning boshlang'ich bo'g'ini desak ham mubolag'a bo'lmaydi.Chunki mizoj tabiblar tomonidan qo'yayotgan tashhisning asosi hisoblanadi.Mizojga ko'ra kasalliklar aniqlanadi,bartaraf etiladi,sog'lom turmush tarzi yo'lga qo'yiladi.Qisqasi mizojni bilgan tabibgina bemorni muvaffaqiyatli davolay oladi.Bundan tashqari akupunktura,ya'ni igna bilan davolash yo'nalishi ham keng tarqalmoqda va turli kasalliklarni,jumladan xirurgik kasalliklarni davolashda ham birgina ignalar orqali bartaraf etilmoqda.Akupunktura yo'nalishi orqali meridianlarda joylashgan biologik faol nuqtalarga ta'sir etiladi natijada nerv tomirlari retseptorlariga ta'siri orqali asab tizimi funksional holatini o'zgartiradi,organizmning tabiiy holatini tiklaydi,umumiy immunitetni faollashtiradi,limfa va qon aylanishini yaxshilaydi,qon bosimi,yurak va miya faoliyatini normallashtiradi.Yana hijoma,apiterapiya va yuqorida keltirilgan yo'nalishlar rivojlanmoqda bularga davlatimiz tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda.Bu kabi yo'nalishlar shifoxonalarda,xususiy klinikalarda faoliyat ko'rsatmoqda.Talabala yoshlarimiz hozirda bu kabi yo'nalishlar bilan shug'langan holda turli kasalliklarni davo choralarini topmoqda.Insonlarda xalq tabobatiga bo'lgan talabning yuqoriligi sababli,xalq tabobatining har bir yo'nalishi bo'yicha klinikalar tashkil etilmoqda.Jumladan xijoma, girudoterapiya, apiterapiya, akupunktura kabilari.

Xulosa:

Demak,xalq tabobati yo'nalishini yo'lga qo'yish orqali inson va tabiat o'rtasida uyg'unlik yuzaga keldi,insonlarning tabiatga bo'lgan qarashlari o'zgardi.Ya'ni

ularni uzoq o'ylantirayotgan kasalliklarini davosi birgina tabiatda ekanligini anglab yetdi. Xalq tabobati qulay va samarali bo'lishi bilan birgalikda iqtisodiy jihatdan o'ta samarali va zararli jihatlari ham kamdir. Zararli jihati kam deyishimizga asosiy sabablardan biri: tabiblar tomonidan dori iste'mol qilishga qattiq targ'ib qilinmaydi. Chunki dori badanda kasallikni topa olmasa, uni shikastlaydi yoki o'ziga muvofiq bo'lmagan boshqa bir kasallikni keltirib chiqaradi yoki o'ziga mos kasallikni topib, uning miqdori va holatini ko'paytirib yuboradi. buning oqibatida kasallik kelib chiqadi. Xalq tabobati yo'nalishida butun organizm bo'yicha davolaydi, zamonaviy tibbiyotda esa faqat kasallik alomatlari sezilgan organni davolaydi, oqibatda kasallik alomatlari sezilgan organ uchun foydali bo'lgan dorilar boshqa organlar uchun salbiy oqibatlarni keltirib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. M. Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasida Xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-4668 10.04.2020.
2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari // 1-, 2-, 3-jildlar. T.: O'zME. -1993.
3. Yuldasheva Lola Sadullayevna. Xalq tabobati falsafasi. Toshkent INVEST BOOK. -2023
4. Muhammad at-tabib al-Haraviy. Mizoj haqida risola. Toshkent Vneshtorgizdat. -1991
5. Sagdullaevna, Y. L. "The Principle of Emanation in IBN Sino's Ontology". Central Asian Journal of Social Sciences and History, Vol. 3, no. 12, Dec. 2022, pp. 90-92, <https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/539>.
6. Yuldasheva, Lola Sadullaevna (2024). SPIRIT AS A NATURAL FORCE IN BERUNI'S VIEWS. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4 (4), 199-203.